

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV MENEJMENTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI.....	14
Xabibullayev Dadajon Ro‘ziboyevich	
GREEN ECONOMY TRANSITION AND INVESTMENT CHALLENGES IN DEVELOPING COUNTRIES	20
Ismoilov Sulaymon Axmadjon o‘g‘li	
O‘ZBEKISTONDA YASHIL SOLIQQA TORTISH TIZIMINI MUAMMOLAR, YECHIM VA IMKONIYATLARI ASOSIDA JORIY ETISH.....	24
Abdumannobova Gulnoz Akmaljon qizi	
O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA INVESTITSYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	30
Nosirova Kamola Alimovna	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	39
Xazratov Abror Panjiyevich	
MINTAQA SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O‘SISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	44
Astanayev Kulmaxammat Sanayevich	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION DEPOZIT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNING BANK RESURS BAZASIGA TA‘SIRI.....	51
Ro‘zimurodov Olim, Normamatov Ruslanbek Shamsiddin o‘g‘li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG‘URTA EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY ASOSLARI.....	57
Xalikulova Gulzada Tadjimuratovna, Kodirova Samira Kamol qizi	
MEHNAT SHARTNOMASI ASOSIDA FAOLIYAT YURITUVCHI QO‘RIQLASH DEPARTAMENTI TIZIMIDAGI IDORAVIY HARBIYLASHTIRILGAN QO‘RIQLASH VA IDORAVIY QOROVULLIK BO‘LINMALARI ISHCHI-XIZMATCHILARIGA DAVLAT IJTIMOY SUG‘URTASINI TATBIQ ETISHNING HUQUQIY-IQTISODIY JIHATLARI	64
Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o‘g‘li	
ТЕОРИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ИСЛАМСКОГО СТРАХОВАНИЯ И ЕГО СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НА ПРИМЕРЕ БЛИЖНЕВОСТОЧНЫХ СТРАН.....	70
Гаффоров Шухрат Насриевич	
IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA MADANIY TURIZM SOHASIDAGI SUBYEKTLAR TA‘SIRINI BAHOLASH USULLARI.....	77
Shohruzbek Ruziyev	
“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH SIYOSATINING DASTAKLARI.....	84
Inatullayeva Intizor Jamshid qizi, Uchqun Yunusovich O‘roqov	
RAQAMLI MEDIA BOZORI SHAROITIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARIDA DAROMAD MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING IQTISODIY USTUVOR YO‘NALISHLARI.....	87
Sharipova Shahlo Istamovna	
TIJORAT BANKLARINING AHOLINING HUDUDIY XARID QOBILYATIGA YO‘NALTIRILGAN KREDIT SIYOSATINI TASHKIL ETISH TIZIMI	92
Tursunov Bekmuxammad Omonovich, Qarshiyev O‘ktam G‘aybullo o‘g‘li	
INVESTITSYALAR BUXGALTERIYA HISOBI OBYEKTI SIFATIDA.....	99
I.Boymurodov	
TA‘LIM MUASSASALARIDA SAMARALI MENEJMENT MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	103
Makhmudov Sunnatjon Abdjabbor o‘g‘li, Ashurova Jasmina Jo‘ra qizi	
O‘ZBEKISTONDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMINI MOLIALASHTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA BUDJET XARAJATLARI DINAMIKASI	110
Sarsenbaev Baxitjan, Toremuratova Indira, Xayirbaeva Balzira	



TASHQI SAVDO FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING FISKAL VA INSTITUTSIONAL
TAHLILI 115
Almuradov Ne'mat Abdullayevich



TASHQI SAVDO FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING FISKAL VA INSTITUTSIONAL TAHLILI

Almuradov Ne'mat Abdullayevich

mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Maqolada mamlakat tashqi savdo faoliyatini soliqqa tortish tartibini qo'llash amaliyoti fiskal barqarorlik, soliq ma'muriyatchiligi, elektron hisobvara-fakturalar, tashqi savdo operatsiyalari monitoringi hamda foyda solig'i samaradorligi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda bojxona boji, qo'shilgan qiymat solig'i, QQSni qoplash, elektron kontrakt va foyda solig'i tushumlari dinamikasi tashqi savdo jarayonlarini tartibga soluvchi yagona fiskal-institutsional mexanizm sifatida baholanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish tashqi savdo operatsiyalari shaffofligini oshiradi, fiskal nazoratni kuchaytiradi va soliq to'lovchilarning intizomini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, eksportdan olinadigan foydani soliqqa tortish tartibidagi o'zgarishlar budjet daromadlarini kengaytirish hamda imtiyozlarning natijadorligini qayta baholash imkonini beradi.

Tayanch so'zlar: tashqi savdo faoliyati; soliqqa tortish; bojxona boji; qo'shilgan qiymat solig'i; elektron hisobvara-faktura; QQS ma'muriyatchiligi; eksport; import; foyda solig'i; soliq nazorati; E-kontrakt; raqamli monitoring; fiskal samaradorlik.

Abstract. The article examines the practical application of taxation procedures for the country's foreign trade activities from the perspective of fiscal sustainability, tax administration, electronic invoices, monitoring of foreign trade operations and the effectiveness of corporate income tax. Customs duties, value added tax, VAT refund mechanisms, electronic contracts and the dynamics of corporate income tax revenues are interpreted as interrelated elements of an integrated fiscal and institutional mechanism for regulating foreign trade. The study argues that digitalization increases the transparency of foreign trade transactions, strengthens fiscal control and improves tax discipline among foreign trade participants.

Keywords: foreign trade activity; taxation; customs duty; value added tax; electronic invoice; VAT administration; export; import; corporate income tax; tax control; electronic contract; digital monitoring; fiscal efficiency.

Аннотация. В статье анализируется практика применения порядка налогообложения внешнеторговой деятельности страны с позиции фискальной устойчивости, налогового администрирования, электронных счетов-фактур, мониторинга внешнеторговых операций и эффективности налога на прибыль. Таможенные пошлины, налог на добавленную стоимость, возмещение НДС, электронный контракт и динамика поступлений налога на прибыль рассматриваются как взаимосвязанные элементы единого фискально-институционального механизма регулирования внешней торговли. Обосновано, что цифровизация повышает прозрачность внешнеторговых операций, усиливает фискальный контроль и укрепляет налоговую дисциплину участников внешнеэкономической деятельности.

Ключевые слова: внешнеторговая деятельность; налогообложение; таможенная пошлина; налог на добавленную стоимость; электронный счет-фактура; администрирование НДС; экспорт; импорт; налог на прибыль; налоговый контроль; электронный контракт; цифровой мониторинг; фискальная эффективность.

KIRISH

Tashqi savdo faoliyatini soliqqa tortish amaliyoti milliy iqtisodiyotning tashqi bozorlar bilan bog'liq fiskal, valyuta va institutsional munosabatlarini tartibga soluvchi muhim tizimdir. Mazkur tizim orqali, bir tomondan, davlat budjeti daromadlari shakllantiriladi, ikkinchi tomondan, eksport-import operatsiyalarining qonuniyligi, tovar va xizmatlar harakatining shaffofligi, shuningdek, soliq to'lovchilarning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi intizomi ta'minlanadi. Shu sababli tashqi savdoni soliqqa tortish faqat fiskal undirish jarayoni emas, balki milliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish, tashqi savdo oqimlarini muvozanatlashtirish va xalqaro savdo qoidalariga moslashishning amaliy mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Mamlakatda tashqi savdo operatsiyalarining ko'lami kengaygani sari soliq va bojxona ma'muriyatchiligiga qo'yiladigan talablar ham ortib bormoqda. Ayniqsa, import jarayonida bojxona qiymatini aniqlash, bojxona boji va QQSni hisoblash, elektron hisobvara-fakturalarni rasmiylashtirish, eksport xizmatlari ijrosini tasdiqlash hamda foyda solig'i tushumlarini baholash tashqi savdo faoliyatini soliqqa tortishning markaziy yo'nalishlariga aylangan [1; 2; 3]. Raqamli axborot tizimlari ushbu jarayonlarni avtomatlashtirish bilan birga, soliq xavflarini aniqlash, noto'g'ri hisobga olingan QQS summalarini cheklash va tashqi savdo operatsiyalarini real vaqt

rejimida nazorat qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Maqolaning maqsadi tashqi savdo faoliyatini soliqqa tortish tartibini qo'llash amaliyotini ikkinchi bob materiallari asosida ilmiy tahlil qilish, unda bojxona boji, QQS, tashqi savdo monitoringi va foyda solig'i samaradorligini baholash orqali amaliy xulosalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda tashqi savdo soliqlari dinamikasi, raqamli ma'muriyatchilik vositalari, xizmatlar eksporti va importi monitoringi hamda eksportdan olinadigan foydani soliqqa tortish mexanizmining fiskal ta'siri tizimli yondashuv asosida o'rganiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tashqi savdo faoliyatini soliqqa tortish masalasi klassik, neoklassik, institutsional va fiskal nazariyalar doirasida tahlil qilinadi. Klassik yondashuvlarda tashqi savdo mamlakatlar o'rtasidagi ixtisoslashuv va ayirboshlash samaradorligi bilan izohlanadi. Bunday qarashlar tashqi savdo hajmining o'sishi davlatning fiskal imkoniyatlarini kengaytirishi mumkinligini ko'rsatadi. Biroq zamonaviy sharoitda tashqi savdoni soliqqa tortishning vazifasi faqat budjet tushumlarini oshirish bilan cheklanmaydi; u soliq yukini oqilona taqsimlash, mahalliy ishlab chiqarish manfaatlarini himoya qilish, eksportchilarni qo'llab-quvvatlash va xalqaro standartlarga mos soliq ma'muriyatchiligini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi.

B. Ohlin tomonidan ishlab chiqilgan ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi tashqi savdo faoliyatining neoklassik asoslarini ochib beradi¹. Uning fikricha, mamlakatlar mehnat, kapital, tabiiy resurslar va texnologik salohiyat bilan ta'minlanganlik darajasiga qarab xalqaro savdoda ixtisoslashadi. Ya'ni qaysi ishlab chiqarish omili mamlakatda nisbatan ko'p va arzon bo'lsa, shu omildan intensiv foydalaniladigan mahsulotlar eksportga yo'naltiriladi. Ushbu yondashuv tashqi savdoni soliqqa tortishda fiskal instrumentlar ishlab chiqarish omillarining raqobat ustunligini susaytmasligi lozimligini ko'rsatadi. Shu sababli eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarda soliq yukining maqbul darajada belgilanishi, bojxona va QQS mexanizmlarining ishlab chiqarish xarajatlarini ortiqcha oshirmasligi hamda milliy iqtisodiyotning xalqaro raqobatbardoshligini qo'llab-quvvatlashi muhim hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha xalqaro tajribada elektron hisobvara-fakturalar, xavfga asoslangan monitoring, real vaqt rejimida ma'lumot almashish va raqamli hisobot tizimlari muhim o'rin egallaydi. Xitoyning "Golden Tax Project", Qozog'istonda elektron schyot-fakturalarga bosqichma-bosqich o'tish, Rossiya Federatsiyasi va Yevropa Ittifoqida QQS ma'muriyatchiligini raqamlashtirish bo'yicha amaliyotlar shuni ko'rsatadiki, elektron hujjat aylanishi soliq bazasini yashirish, soxta operatsiyalar va noto'g'ri soliq chegirmalarini kamaytirishda yuqori samaradorlik beradi. Bu tajribalar O'zbekiston sharoitida ham tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha soliq nazoratini raqamli transformatsiya qilish zarurligini asoslaydi.

Mahalliy ilmiy ishlarda tashqi savdoni soliqqa tortish, bojxona ma'muriyatchiligi, bilvosita soliqlar va soliq nazorati masalalari alohida yo'nalishlar sifatida tadqiq etilgan. X.M. Kulimova eksport-import operatsiyalarida soliq nazoratini takomillashtirish masalalarini tadqiq etib, tashqi savdo operatsiyalarida nazoratning asosiy vazifasi faqat soliq huquqbuzarliklarini aniqlash emas, balki soliq xavflarini oldindan baholash, bojxona va soliq organlari o'rtasidagi axborot almashinuvini kuchaytirish hamda eksport-import bitimlarining shaffofligini ta'minlashdan iborat ekanligini asoslaydi². Uning yondashuviga ko'ra, tashqi savdo faoliyatida soliq nazoratining samaradorligi elektron hisobvara-fakturalar, bojxona deklaratsiyalari, bank to'lovlari, kontraktlar va tovar harakati haqidagi ma'lumotlarni yagona raqamli tizimda integratsiya qilishga bog'liq. Bu esa tashqi savdo subyektlariga nisbatan ortiqcha ma'muriy bosimni kamaytirgan holda, soliq nazoratining aniqligi va natijadorligini oshirish imkonini beradi.

F. Sharipov O'zbekistonda tashqi savdoni tartibga solishda soliq siyosatini takomillashtirish masalalarini o'rganib, soliq siyosatini tashqi savdo jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi muhim fiskal va tartibga soluvchi instrument sifatida baholaydi³. Uning fikricha, tashqi savdo faoliyatida soliq siyosati eksportni rag'batlantirish, import tarkibini maqbullashtirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va davlat budjeti daromadlarini barqaror shakllantirish o'rtasida muvozanatni ta'minlashi lozim. Muallif tashqi savdoni tartibga solishda soliq imtiyozlari, bilvosita soliqlar, bojxona to'lovlari va soliq ma'muriyatchiligi mexanizmlarining o'zaro uyg'un qo'llanilishi milliy iqtisodiyotning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Sh.N. G'afforov bilvosita soliqlar mexanizmini takomillashtirish masalalarini tadqiq etar ekan, QQS va aksiz solig'i kabi bilvosita soliqlar davlat budjeti daromadlarini shakllantirish bilan birga, iste'mol, import va ishlab chiqarish jarayonlariga tartibga soluvchi ta'sir ko'rsatishini asoslaydi⁴. Tashqi savdo faoliyati nuqtayi nazaridan

1 Ohlin B. *Interregional and International Trade*. – Cambridge, Mass.: Harvard University Press, 1933. – 617 p.

2 Kulimova X.M. *Eksport-import operatsiyalarida soliq nazoratini takomillashtirish*. Dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2022.

3 Sharipov F. *O'zbekistonda tashqi savdoni tartibga solishda soliq siyosatini takomillashtirish*. Dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2019.

4 G'afforov Sh.N. *Bilvosita soliqlar mexanizmini takomillashtirish masalalari*. – Toshkent, 2025.



uning qarashlari shuni ko'rsatadiki, bilvosita soliqlar mexanizmi import operatsiyalarida fiskal nazoratni kuchaytirish, ichki bozorda adolatli raqobat muhitini ta'minlash va eksportga yo'naltirilgan korxonalar uchun soliq yukini maqbullashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, QQSni hisobga olish va qaytarish tartibining shaffofligi eksportchilar aylanma mablag'lari barqarorligini ta'minlab, tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

Biroq tashqi savdo faoliyatini soliqqa tortishning amaldagi holatini bojxona boji, QQS, xizmatlar eksporti monitoringi va foyda solig'i tushumlari bilan bog'liq holda yagona tahliliy tizim sifatida o'rganish alohida ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur maqolada aynan shu yondashuv asos qilib olinib, tashqi savdo soliqqa tortish amaliyoti fiskal natijadorlik va institutsional nazorat mezonlari orqali baholanadi. Umuman olganda, B. Ohlinning ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi tashqi savdoning iqtisodiy asoslarini tushuntirsa, X.M. Kulimova eksport-import operatsiyalarida soliq nazoratining raqamli va institutsional jihatlarini, F. Sharipov tashqi savdoni tartibga solishda soliq siyosatining muvozanatli qo'llanilishini, Sh.N. G'afforov esa bilvosita soliqlar mexanizmining tashqi savdo va budget barqarorligidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Shu bois tashqi savdo faoliyatini soliqqa tortish tizimini takomillashtirishda nazariy savdo yondashuvlari, soliq nazorati, bilvosita soliqlar va raqamli ma'muriyatchilik mexanizmlarini kompleks holda tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot tizimli tahlil, qiyosiy baholash, dinamik tahlil, institutsional yondashuv va statistik umumlashtirish usullariga asoslanadi. Tizimli yondashuv tashqi savdoni soliqqa tortish elementlarini alohida soliqlar yig'indisi sifatida emas, balki bojxona, soliq, bank, elektron kontrakt va statistik axborot tizimlari o'rtasidagi o'zaro bog'langan boshqaruv mexanizmi sifatida o'rganish imkonini beradi. Qiyosiy tahlil esa turli yillardagi bojxona boji, QQS va foyda solig'i ko'rsatkichlarini solishtirish orqali ularning fiskal barqarorlikka ta'sirini aniqlashga xizmat qiladi.

Maqolada 2020–2025-yillar bo'yicha tashqi savdo, bojxona boji, QQS ma'muriyatchiligi, noto'g'ri hisobga olingan QQS summalari, xizmatlar eksporti va foyda solig'i tushumlari dinamikasi o'rganildi. Ushbu ko'rsatkichlar soliqqa tortish amaliyotining uchta asosiy yo'nalishini: fiskal tushumlar barqarorligini, soliq nazorati sifati va raqamlashtirish darajasini hamda tashqi savdo ishtirokchilarining soliq yukiga moslashuvini baholash imkonini beradi. Tahlil jarayonida rasmiy statistik va idoraviy ma'lumotlar asosida umumlashtirilgan xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tashqi savdo faoliyatini soliqqa tortishning amaldagi holati, avvalo, bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalari harakatiga nisbatan undiriladigan bojxona boji, QQS, aksiz solig'i va bojxona yig'imlari orqali namoyon bo'ladi [1;2]. Mazkur to'lovlar import oqimlarini tartibga solish, ichki bozorni himoya qilish hamda davlat budgeti daromadlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Tahlil qilinayotgan davrda bojxona boji tushumlarining o'sishi tashqi savdo hajmi kengaygani va bojxona ma'muriyatchiligi takomillashtirish bilan izohlanadi.

1-jadval

Davlat budgeti daromadlari tarkibida bojxona boji tushumlari dinamikasi⁵

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Davlat budgeti daromadlari, mlrd so'm	132 938,0	164 799,1	201 864,0	231 721,0	274 423,0
Bilvosita soliqlar, mlrd so'm	46 428,4	56 290,4	71 390,0	83 326,0	97 420,0
Bojxona boji, mlrd so'm	3 553,7	4 764,9	5 746,0	9 606,0	10 783,0
Bojxona bojining budget daromadlaridagi ulushi, %	2,7	2,9	2,8	4,1	3,9

Jadval ma'lumotlari bojxona boji tushumlari 2020-yildagi 3 553,7 mlrd so'mdan 2024-yilda 10 783,0 mlrd so'mgacha oshganini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich nominal jihatdan qariyb uch baravarga yaqin o'sgan bo'lib, bojxona-tarif ma'muriyatchiligi davlat budgeti daromadlarini shakllantirishda sezilarli fiskal ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. 2023-yilda bojxona bojining budget daromadlaridagi ulushi 4,1 foizga yetgani tashqi savdo

5 Manba: muallif tomonidan tuzildi.

oqimlari va tarif to'lovlari dinamikasida keskin faollashuv bo'lganini anglatadi.

Bojxona to'lovlari tashqi savdoni soliqqa tortish tizimida tartibga soluvchi va himoya qiluvchi ikki tomonlama vazifani bajaradi. Bir tomondan, u import qilinayotgan tovarlarning bojxona qiymati asosida budjet daromadlarini oshiradi; ikkinchi tomondan, ichki ishlab chiqaruvchilarni tashqi raqobat bosimidan muayyan darajada himoya qiladi. Shu bois bojxona boji stavkalarini belgilashda fiskal manfaatlar bilan bir qatorda ichki ishlab chiqarishning raqobatbardoshligi, iste'mol narxlar va tashqi savdo balansiga ta'sir omillari ham hisobga olinishi zarur.

Tashqi savdo faoliyatini soliqqa tortishda qo'shilgan qiymat solig'i alohida ahamiyat kasb etadi. Import qilinadigan tovarlar bo'yicha QQS tovarning bojxona qiymati va boshqa tegishli xarajatlar asosida hisoblanib, ichki bozorda soliq neytralligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, eksport operatsiyalarida QQSning 0 foizlik stavkasi va qoplab berish mexanizmi eksportchilar likvidligini qo'llab-quvvatlaydi [2; 4]. Shu sababli QQS ma'muriyatchiligining sifati tashqi savdo ishtirokchilarining moliyaviy barqarorligi va davlat budjeti manfaatlarini o'rtasidagi muvozanatni belgilaydi.

2-jadval

O'zbekistonda QQS stavkasi va ma'muriy ko'rsatkichlarining o'zgarishi⁶

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
QQS stavkasi, %	15	15	15	12	12
QQS tushumlari, trln so'm	40,2	52,9	71,5	57,9	59,3
Soliq organlari tomonidan undirilgan QQS, trln so'm	20,5	25,6	32,8	34,0	39,6
Bojxona organlari tomonidan undirilgan QQS, trln so'm	19,7	27,3	38,7	23,9	19,7
QQS to'lovchilar soni, mingta	124,8	141,5	156,5	198,2	201,0

QQS stavkasi 2023-yildan 12 foizga pasaytirilgan bo'lsa-da, soliq to'lovchilar sonining ortishi va elektron hisobvara-fakturalar aylanishining kengayishi QQS ma'muriyatchiligi imkoniyatlarini saqlab qolgan [2; 3; 6]. 2020–2024-yillarda QQS to'lovchilar soni 124,8 mingdan 201,0 mingtaga yetgani soliq bazasining institutsional kengayishini ko'rsatadi. Bu jarayon stavka pasaytirilgan sharoitda ham soliq intizomini mustahkamlash, yashirin aylanmalarni qisqartirish va elektron hujjat aylanishini kengaytirish orqali fiskal barqarorlikka erishish mumkinligini tasdiqlaydi.

Elektron hisobvara-faktura tizimi QQS ma'muriyatchiligida eng muhim raqamli instrumentlardan biridir. Hisobvara-faktura sotuvchi tomonidan taqdim etilgan QQS summasini xaridor tomonidan hisobga olish uchun asos bo'ladigan birlamchi hujjat bo'lgani sababli, uning elektron shaklda yuritilishi soliq nazoratini real operatsiyalar bilan bog'laydi. Elektron shakldagi hisobvara-fakturalar tovar aylanmasi, QQS summasi, xaridor va sotuvchi ma'lumotlarini yagona axborot maydonida jamlab, soliq xavflarini avtomatik tahlil qilishga sharoit yaratadi.

QQSni noto'g'ri hisobga olish holatlari tashqi savdo va ichki aylanmalarni soliqqa tortishda muhim xavf omili hisoblanadi. Ayniqsa, muddati o'tgan debitor qarzdorligi mavjud subyektlar yoki intizomli soliq to'lovchilar ro'yxatida mavjud bo'lmagan korxonalar orqali amalga oshirilgan operatsiyalar davlat budjeti uchun xavf tug'diradi. Shu sababli xavf darajasini aniqlash, elektron hujjatlarni tahlil qilish va soliq to'lovchi xatti-harakatlarini reyting asosida baholash tizimlari amaliy ahamiyatga ega.

3-jadval

Eksport operatsiyalari bo'yicha QQS summalarini hisobga olishda aniqlangan nomutanosibliklarning tahliliy ko'rsatkichlari⁷

QQSni hisobga olishda nomutanosiblik aniqlangan holatlar soni	Nomutanosib hisobga olingan QQS summasi, mln. so'm	Muddati o'tgan debitor qarzdorligi mavjud soliq to'lovchilar soni	Ular bo'yicha QQS summasi, mln. so'm	Soliq intizomi yuqori subyektlar ro'yxatiga kiritilmagan soliq to'lovchilar soni	Ular bo'yicha QQS summasi, mln so'm
196	45 697,5	85	19 675,5	111	26 022,0

6 Manba: muallif tomonidan tuzildi.

7 Manba: muallif tomonidan tuzildi.



384	168 421,5	296	187 255,6	88	18 834,1
268	101 451,6	201	86 769,4	67	14 682,1
323	119 303,7	275	106 129,2	48	13 174,5
328	121 149,7	284	109 602,5	22	11 827,4

Jadvaldan ko'rinadiki, noto'g'ri hisobga olingan QQS summalarida muddati o'tgan debitor qarzdorligi mavjud subyektlar ulushi sezilarli darajada yuqori bo'lgan. 2024-yilda bunday subyektlar soni 284 tani tashkil etib, ular bo'yicha summa 109 602,5 birlikka yetgan. Shu bilan birga, intizomli soliq to'lovchilar ro'yxatida mavjud bo'lmagan subyektlar soni 2020 yildagi 111 tadan 2024-yilda 22 tagacha kamaygani soliq to'lovchilarni segmentatsiya qilish va elektron nazorat mexanizmlarining ijobiy natija berganidan dalolat beradi.

Tashqi savdo operatsiyalari monitoringi faqat tovarlar importi yoki eksporti bilan cheklanmaydi. Xizmatlar eksporti, turizm, transport, telekommunikatsiya, moliyaviy xizmatlar va intellektual mulkdan foydalanish bo'yicha to'lovlar ham tashqi savdo balansining muhim tarkibiy qismini tashkil qiladi. Shu bois xizmatlar eksporti bo'yicha shartnomalar ijrosini elektron dalolatnoma asosida tasdiqlash tashqi savdo operatsiyalarining shaffofligini oshirishda muhim bosqich hisoblanadi [8].

4-jadval

Xizmatlar eksporti va E-kontrakt orqali hujjatli tasdiqlash mexanizmi⁸

№	Ko'rsatkichlar	Yillar				
		2021	2022	2023	2024	2025
1.	Jami eksport hajmi, mlrd. AQSH doll.	16,7	19,8	24,8	27,3	33,8
2	Xizmatlar eksporti hajmi, mlrd AQSH doll.	2,6	4,5	5,6	7,6	9,8
3	Xizmatlar eksportining jami eksportdagi ulushi, %	15,6	22,7	22,6	27,8	29,0
4	Ish va xizmatlar ijrosini E-kontrakt tizimida dalolatnoma bilan tasdiqlash, %	0	0	0	0	100
5.	Hujjatsiz dalolatnoma ma'lumotlarini kiritishni cheklash bo'yicha elektron nazorat, %	0	0	0	0	100

2021–2025-yillarda xizmatlar eksporti 2,6 mlrd AQSH dollaridan 9,8 mlrd AQSH dollarigacha o'sib, jami eksportdagi ulushi 15,6 foizdan 29,0 foizgacha ko'tarilgan. Bu xizmatlar eksporti tashqi savdo tarkibida mustaqil va tez o'suvchi yo'nalishga aylanganini ko'rsatadi. Shu sharoitda E-kontrakt tizimiga dalolatnoma nusxasini biriktirish talabi xizmatlar ijrosini hujjatli tasdiqlash, valyuta tushumlari monitoringi va soliq bazasining aniqligini ta'minlashda muhim institutsional mexanizmga aylanadi.

Tashqi savdo monitoringining yana bir muhim jihati aktivlar repatriatsiyasi va muddati o'tgan debitor qarzdorliklarni kamaytirish bilan bog'liq. Eksport tushumlarining o'z vaqtida qaytishi valyuta bozorida barqarorlikni ta'minlaydi, eksportchilarning bank tizimi bilan hisob-kitoblarini yaxshilaydi va soliq organlari uchun real tushumlar bazasini shakllantiradi. Shu nuqtayi nazardan, tashqi savdo operatsiyalarida faqat jazolovchi yondashuv emas, balki rag'batlantiruvchi-kompensatsion mexanizmlardan foydalanish ham muhimdir.

Foyda solig'i tashqi savdo faoliyatini soliqqa tortishda bevosita fiskal natijani ifodalovchi asosiy soliq turidir. Eksport va import operatsiyalari natijasida shakllanadigan foyda korxonalarining moliyaviy natijalariga, investitsiya imkoniyatlariga va davlat budjeti daromadlariga ta'sir ko'rsatadi [2]. Shu sababli foyda solig'i samaradorligini baholashda faqat tushumlar hajmi emas, balki uning YalMdagi ulushi, davlat budjeti daromadlaridagi o'rni va bevosita soliqlar tarkibidagi ulushi ham hisobga olinishi kerak.

2020–2024-yillarda foyda solig'i tushumlari 28 712,3 mlrd so'mdan 52 620,0 mlrd so'mgacha oshgan. 2024-yilda foyda solig'i bo'yicha tushumlar 2023-yilga nisbatan sezilarli ko'paygani iqtisodiy faollik, soliq ma'muriyatchiligi va soliq siyosatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Shu bilan birga, foyda solig'ining YalMdagi ulushi 2021-yildagi 5,2 foizdan 2024-yilda 3,6 foizga pasaygani iqtisodiyot hajmi o'sishi soliq tushumlari dinamikasidan yuqoriroq sur'atda kechganini ko'rsatadi.

Eksportdan olinadigan foydani soliqqa tortish tartibidagi o'zgarishlar tashqi savdoni soliqqa tortish amaliyotida muhim fiskal burilish hisoblanadi. Avval eksportga realizatsiya qilishdan olingan foydaga nisbatan 0 foizlik stavka qo'llanilgan bo'lsa, keyingi o'zgarishlar ushbu foydani umumiy 15 foizlik foyda solig'i stavkasi asosida soliqqa tortish imkonini kengaytirdi. Bu yondashuv eksport salohiyati shakllangan sharoitda imtiyozlarni qayta baholash, soliq bazasini kengaytirish va budjet daromadlarining barqarorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

8 Manba: muallif tomonidan tuzildi.

2021–2025-yillarda eksport hajmi 16,7 mlrd AQSH dollaridan 33,8 mlrd AQSH dollarigacha oshgan. Eksport hajmining bunday kengayishi eksportdan olinadigan foyda bo'yicha soliq bazasining ham ortib borayotganini anglatadi. 2025-yildan foyda solig'i stavkasining 15 foizga belgilanishi natijasida eksport foydasidan qo'shimcha 4,5 trln so'm tushum shakllanishi kutilayotgani fiskal samaradorlik nuqtayi nazaridan muhim natija hisoblanadi.

Biroq eksport foydasini soliqqa tortish amaliyotida fiskal manfaatlar bilan eksport raqobatbardoshligi o'rtasidagi muvozanat saqlanishi zarur. Agar soliq yukining oshishi eksportchi korxonalar rentabelligiga haddan tashqari bosim ko'rsatsa, ularning tashqi bozorlardagi narx raqobatbardoshligi pasayishi mumkin. Shu sababli foyda solig'i bo'yicha umumiy rejimga o'tish eksportchi korxonalar xarajatlari, valyuta tushumlari, qayta investitsiya imkoniyatlari va tarmoqlar kesimidagi rentabellik bilan birgalikda baholanishi lozim.

Umuman olganda, ikkinchi bob materiallari tashqi savdo faoliyatini soliqqa tortish amaliyotida uchta asosiy tendensiyani ko'rsatadi. Birinchidan, bojxona boji va import QQS davlat budjeti daromadlarida barqaror fiskal manba bo'lib qolmoqda. Ikkinchidan, QQS ma'muriyatchiligi va elektron hisobvara-q-fakturalar soliq nazoratining sifat jihatdan yangi bosqichini shakllantirmoqda. Uchinchidan, eksportdan olinadigan foydani soliqqa tortish tartibidagi o'zgarishlar soliq imtiyozlarini natijadorlik mezonlari asosida qayta baholash zarurligini ko'rsatmoqda.

Tashqi savdo faoliyatini soliqqa tortish amaliyotini baholashda faqat tushumlar hajmini hisobga olish yetarli emas. Chunki tashqi savdo operatsiyalari bir vaqtning o'zida bojxona, soliq, bank, valyuta nazorati va statistik axborot tizimlari bilan bog'liq bo'lgan murakkab jarayondir. Shuning uchun amaliy samaradorlikni aniqlashda fiskal natija, ma'muriy xarajatlar, soliq to'lovchi uchun qulaylik, ma'lumotlar almashinuvi tezligi va xalqaro standartlarga moslik kabi mezonlar birgalikda qo'llanilishi lozim. Agar ushbu mezonlar yagona tizimda baholanmasa, soliq ma'muriyatchiligi fiskal tushumlarni oshirgan holda ham tadbirkorlik xarajatlarini ko'paytirishi mumkin.

Bojxona va soliq ma'muriyatchiligi o'rtasidagi axborot integratsiyasi tashqi savdoni soliqqa tortish tizimining tayanch sharti hisoblanadi. Masalan, import bo'yicha bojxona qiymati, bojxona yuk deklaratsiyasi, QQS summasi va elektron hisobvara-q-faktura ma'lumotlari yagona axborot zanjirida bog'langan taqdirda soliq organlari korxonalarining real aylanmasini aniqroq baholay oladi. Aksincha, ushbu tizimlar alohida-alohida ishlasa, soliq bazasining takroriy hisoblanishi, noto'g'ri chegirmalar yoki hujjatlar nomuvofiqligi yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli tashqi savdoni soliqqa tortish tartibida ma'lumotlar mosligi fiskal nazoratdan ham kengroq institutsional vazifani bajaradi.

Elektron hisobvara-q-faktura, E-kontrakt, bojxona deklaratsiyasi va bank valyuta tushumlari haqidagi ma'lumotlarni integratsiyalash orqali soliq to'lovchining tashqi savdo profili shakllanadi. Bunday profil eksport-import hajmi, soliq to'lovchi intizomi, muddati o'tgan debitor qarzdorligi, QQS qoplash talablari va foyda solig'i majburiyatlarini birgalikda ko'rsatadi. Natijada riskli operatsiyalar umumiy tekshiruvlar orqali emas, balki aniq indikatorlar asosida tanlab nazorat qilinadi. Bu yondashuv halol faoliyat yuritayotgan eksportchi va importchilar uchun ma'muriy yukni kamaytiradi, yuqori xavfli subyektlar ustidan esa nazorat samaradorligini oshiradi.

Tashqi savdoni soliqqa tortish amaliyotida muhim masalalardan yana biri soliq imtiyozlarining natijadorligini baholashdir. Eksportni rag'batlantirish uchun berilgan imtiyozlar dastlab tashqi bozorlarga chiqish, valyuta tushumlarini oshirish va ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga xizmat qiladi. Ammo eksport salohiyati ma'lum darajada shakllangandan so'ng imtiyozlarni davom ettirish yoki qisqartirish masalasi aniq iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida hal qilinishi lozim. Bunday yondashuv fiskal adolatni kuchaytiradi, soliq bazasini kengaytiradi va davlat qo'llab-quvvatlash choralarini manzilli qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, foyda solig'i bo'yicha eksport foydasiga nisbatan umumiy stavkani qo'llash faqat budjet tushumlarini oshirish vositasi sifatida emas, balki soliq imtiyozlarining iqtisodiy qaytimini baholash bosqichi sifatida talqin qilinishi mumkin. Agar eksportchi korxonalar raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish, yuqori qo'shilgan qiymat yaratish va barqaror valyuta tushumlarini ta'minlash imkoniga ega bo'lsa, imtiyozli rejimdan umumiy fiskal rejimga bosqichma-bosqich o'tish iqtisodiy jihatdan asosli bo'ladi. Bunda eng muhim shart — soliq yukining keskin oshib ketmasligi va eksportchilarning qayta investitsiya imkoniyatlari cheklanmasligidir.

Tashqi savdo monitoringi tizimini rivojlantirishda maslahat va metodik yordam institutlari ham muhim o'rin tutadi. Tadbirkorlar uchun bojxona qiymatini aniqlash, QQSni hisobga olish, E-kontrakt hujjatlarini yuritish va foyda solig'i majburiyatlarini to'g'ri hisoblash bo'yicha amaliy maslahatlar berilishi soliq xatolarini kamaytiradi. Bu, ayniqsa, kichik va o'rta eksportchi korxonalar uchun muhim, chunki ular ko'pincha xalqaro shartnomalar, valyuta nazorati va soliq hisobotlari bo'yicha yetarli tajribaga ega bo'lmaydi. Shu sababli soliq va bojxona masalalari bo'yicha axborot-maslahat xizmatlarini kengaytirish tashqi savdoni soliqqa tortish tartibini takomillashtirishning amaliy yo'nalishi sifatida qaralishi kerak.

Amaliy natijalarni baholashda yana bir muhim masala — soliq nazorati bilan tashqi savdo ishtirokchisining moliyaviy barqarorligi o'rtasidagi muvozanatdir. Nazorat vositalari haddan tashqari murakkab bo'lsa, eksportchi korxonalar hujjatlarni rasmiylashtirishga ko'proq vaqt va xarajat sarflaydi. Aksincha, nazorat mexanizmi yetarli bo'lmasa, budjet daromadlarining kamayish xavfi, valyuta tushumlarining kechikishi va soliq bazasining to'liq aks ettirilmasligi xavfi kuchayadi. Shuning uchun tashqi savdoni soliqqa tortish amaliyoti "qattiq nazorat" va



“qulay ma’muriy xizmat” o’rtasidagi institutsional muvozanatga asoslanishi lozim.

Tizimning kelgusi rivojlanishida indikatorlar paneli, avtomatik ogohlantirishlar, oldindan to’ldirilgan soliq hisobotlari va kontraktlar bo’yicha ijro holatini onlayn kuzatish imkoniyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv tadbirkorga o’z majburiyatlarini oldindan ko’rish, soliq organlariga esa xavfli operatsiyalarni vaqtida aniqlash imkonini beradi. Natijada tashqi savdo faoliyatini soliqqa tortish tartibi reaktiv nazoratdan preventiv boshqaruv modeliga o’tadi. Ushbu model raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat va biznes o’rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O’tkazilgan tahlillar mamlakat tashqi savdo faoliyatini soliqqa tortish tartibini qo’llash amaliyoti fiskal, ma’muriy va institutsional jihatdan murakkab, ammo o’zaro bog’langan tizim ekanini ko’rsatdi. Bojxona boji, import QQS, elektron hisobvara-faktura, E-kontrakt monitoringi, aktivlar repatriatsiyasi va foyda solig’i tashqi savdo operatsiyalarini tartibga soluvchi yagona boshqaruv zanjirini shakllantiradi. Ushbu zanjirning samaradorligi davlat budjeti daromadlari barqarorligi, eksport-import operatsiyalarining shaffofligi va tashqi savdo ishtirokchilari uchun ma’muriy qulaylik darajasiga bevosita ta’sir qiladi.

Birinchi, import va eksport operatsiyalarida soliq stavkalarini bozor sharoiti, milliy ishlab chiqarish ehtiyojlari va tashqi savdo balansining holatiga mos ravishda dinamik baholash maqsadga muvofiqdir. Bojxona boji va import QQS stavkalari fiskal daromad manbai bo’lishi bilan birga, ichki ishlab chiqarish hamda iste’mol narxlariga ta’sir qiluvchi omil sifatida ham baholanishi kerak.

Ikkinchi, QQS ma’muriyatchiligini yanada raqamlashtirish, elektron hisobvara-fakturalar bo’yicha xavf tahlilini kuchaytirish, soliq to’lovchilar reytingi va debitor qarzdorlik monitoringini integratsiyalash lozim. Bu noto’g’ri hisobga olingan QQS summalarini kamaytirish, soxta operatsiyalarni erta aniqlash va soliq intizomini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Uchinchi, tashqi savdo operatsiyalarida ishlar va xizmatlar ijrosini E-kontrakt tizimi orqali hujjatli tasdiqlash mexanizmini yanada takomillashtirish zarur. Xizmatlar eksportining jami eksportdagi ulushi oshib borayotgan sharoitda dalolatnoma, kontrakt, valyuta tushumi va soliq hisobotlari o’rtasidagi axborot bog’liqligi tashqi savdo monitoringining asosiy sharti hisoblanadi.

To’rtinchi, eksportdan olinadigan foydani soliqqa tortish mexanizmi fiskal natijadorlik bilan birga eksportchi korxonalar raqobatbardoshligiga ta’siri nuqtayi nazaridan baholanishi lozim. Umumiy 15 foizlik stavkaga o’tish budjet daromadlarini kengaytirsada, eksportga yo’naltirilgan tarmoqlar rentabelligi va qayta investitsiya imkoniyatlari doimiy monitoring qilinishi zarur.

Beshinchi, soliq va bojxona organlari o’rtasidagi axborot almashinuvi, bank hisob-kitoblari, bojxona yuk deklaratsiyalari, elektron hisobvara-fakturalar va E-kontrakt tizimlarini integratsiyalash tashqi savdoni soliqqa tortish amaliyotining eng muhim rivojlanish yo’nalishi sifatida qaralishi kerak. Bunday integratsiya ma’muriy tartib-taomillarni soddalashtiradi, soliq xavflarini tezkor aniqlaydi va tashqi savdo ishtirokchilari uchun prognozlanadigan, shaffof va raqamli boshqaruv muhitini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O’zbekiston Respublikasining 2016-yil 20-yanvardagi O’RQ-400-son “O’zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksini tasdiqlash to’g’risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-2876122>
2. O’zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrda O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. Qonuni bilan tasdiqlangan. <https://lex.uz/docs/-4674011>
3. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-iyundagi 522-son “O’zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvara-fakturalardan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-4386769>
4. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi 489-son “Qo’shilgan qiymat solig’i hamda chet el yuridik shaxslari bilan bog’liq soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-4948595>
5. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-sentyabrdagi 595-son “Soliq to’lovchilarni hisobga olishni yanada takomillashtirish va qo’shilgan qiymat solig’ining o’rnini qoplash tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-5650010>
6. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-avgustdagi PQ-5231-son “Qo’shilgan qiymat solig’i ma’muriyatchiligini takomillashtirish to’g’risida”gi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-5599666>
7. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi PF-57-son “Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo’yicha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Farmoni.



- <https://lex.uz/uz/docs/-7451997>
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-maydagi 283-son "O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo operatsiyalari monitoringini yuritish tizimini yanada takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-4812419>
 9. Ohlin B. Interregional and International Trade. – Cambridge, Mass.: Harvard University Press, 1933. – 617 p.
 10. Kulimova X.M. Eksport-import operatsiyalarida soliq nazoratini takomillashtirish: dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2022.
 11. Sharipov F.G'. O'zbekistonda tashqi savdoni tartibga solishda soliq siyosatini takomillashtirish: dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2019.
 12. G'afforov Sh.N. Bilvosita soliqlar mexanizmini takomillashtirish masalalari: dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2025.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100